

Virusologiya ITIga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha YO'RIQNOMA

I bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo'riqnomada (keyingi o'rinnarda – Yo'riqnomada) Virusologiya ITIga ishga qabul qilishda nomzodlar tekshiruvini o'tkazishning tamoyillari, talablari, tartibi va muddatlarini belgilovchi ichki hujjat hisoblanadi.
2. Ushbu Yo'riqnomanining maqsadlari quyidagilardir:
 - nomzod tomonidan taqdim etilgan o'zi, uning professional faoliyati, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarindoshlik va tijorat aloqalari haqidagi ma'lumotlarni tekshirish;
 - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda institutning ichki hujjatlari talablariga muvofiq halol, sifatli, puxta, xolis amalga oshirishga qodir jismoniy shaxslar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishga erishilishini ta'minlash;
 - Institutda lavozim majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bilim va tajribaga ega bo'Imagan, huququzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shuningdek ularni ishga olish institut uchun obro', korrupsiyaga oid yoki boshqa xatarlarga olib keluvchi nomzodlar bilan mehnat munosabatlariga kirishish xatarini minimallashtirish;
 - rahbarlik va moddiy javobgarlik bilan bog'liq lavozimlarga bilimli, halol, vijdonli, qonunga itoatkor xodimlarni tanlab olish.
3. Ushbu yo'riqnomada ishga qabul qilishda O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari bilan alohida tartib belgilangan lavozimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

II bob. Asosiy tushunchalar

4. Ushbu Yo'riqnomada maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

manfaatlар to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud

ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtaida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

nomzod – Institutning bo'sh ish o'mni talablariga javob beruvchi, bo'sh o'mni (vakant)ga tanlab olingan jismoniy shaxs.

noqonuniy foyda – va'da qilinadigan, taklif etiladigan, taqdim etiladigan yoki qonuniy asossiz olinadigan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk, yoki mulkiy huquqlar, afzalliklar, imtiyozlar, xizmatlar, nomoddiy aktivlar, boshqa har qanday moddiy yoki nomoddiy foyda;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari);

yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

III-bob. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirishga qo'yilgan umumiy talablar va ularning muddatlari

5. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi va Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi nomzodlarni tekshirish uchun mas'ul hisoblanadi.
6. Tekshiruv barcha doimiy va muddatli lavozimlarga nomzodlar, shuningdek fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha qabul qilingan nomzodlarga nisbatan amalga oshiriladi.
7. Agar xodimlarni tanlab olish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (keyingi o'rinnarda - DXRA) tomonidan amalga oshirilsa, nomzodlarni tekshirish nomzod qabul komissiyasi bayonnomasi bilan tasdiqlangandan so'ng, biroq mehnat shartnomasi tuzilmasidan oldin amalga oshiriladi.
8. Agar nomzodlarni tanlab olish DXRA ishtirokisiz amalga oshirilsa, u holda ishga qabul qilinayotgan nomzod professional tanlov va testdan muvaffaqiyatli o'tgach, biroq mehnat shartnomasi tuzilmasdan avval tekshiriladi.
9. Nomzodni tekshirish 5 (besh) ish kunigacha bo'lgan muddatda amalga oshiriladi.
10. Nomzodni belgilangan muddatlarda tekshirish xolis sabablarga ko'ra imkonsiz bo'lsa, uning davomiyligi 5 (besh) ish kunigacha bo'lgan muddatga cho'zilishi mumkin.

IV-bob. Tekshirish uchun hujjatlar va ma'lumotlarni olish

11. Nomzodni tekshirishni amalga oshiradigan Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi va Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi xodimlariga (keyingi o‘rinlarda – Ijrochi) tekshiruvni o‘tkazish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 124-moddasiga muvofiq ishga qabul qilinayotganda talab etiladigan hujjatlar nusxalari;

nomzod tomonidan institutdagi manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatga muvofiq shaklda to‘ldirilgan va imzolangan deklaratsiya nusxasi.

12. Ma’lumotnoma olinayotganda to‘ldirilmagan bandlar mavjud bo‘lsa, Ijrochi nomzoddan yetmayotgan ma’lumotlarni so‘rab olishi mumkin.

13. Ijrochi nomzoddan taqdim etilgan hujjatlar bo‘yicha tushuntirish va qo‘srimchalarni so‘rab olishga haqli.

14. Nomzod so‘ralayotgan hujjatlar yoki ma’lumotlarni taqdim etishni rad etgan taqdirda nomzodni tekshirish ochiq foydalanuvdagi va Ijrochi tasarrufidagi ma’lumotlar asosida, shuningdek rasmiy so‘rov yuborish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda Ijrochi tekshiruv natijalariga oid xulosada tegishli qaydni amalga oshiradi.

15. Nomzodning O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida ko‘zda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortishi uning ishga joylashishini rad etish uchun sabab bo‘lmaydi.

V bob. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish uchun axborot manbalari

17. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish doirasida nomzoddan olingan ma’lumotlar, shuningdek ochiq manbalardan yoki rasmiy so‘rovlar yuborish orqali olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va ishlash amalga oshiriladi.

18. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish uchun axborot manbalari qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi lozim. Ijrochi boshqa davlat organlari va tashkilotlariga, nomzodning avvalgi ish joylari, o‘quv muassasalari va h.k larga taqdim etilgan ma’lumotlarni tekshirish uchun rasmiy so‘rov yuborish mumkin.

19. Ijrochi huquqni muhofaza qilish organlariga so‘rov yuborish orqali nomzodning sudlanganligi, firibgarlik, korrupsiya va zo‘ravonlik bilan bog‘liq ishlarga aloqadorligini tekshirishi mumkin.

20. Nomzod haqidagi ma’lumotlarni tekshirish uchun quyidagi ochiq axborot manbalaridan foydalanish mumkin:

Davlat xizmatlari agentligining yuridik shaxslar va yakka tadbirkorlar ma’lumotlarini tekshirish bo‘yicha platformasi - https://fo.birdarcha.uz/s/ru_landing Korxona va vazirlikning yagona davlat reyestri (KTYADR) -<https://stat.uz/ru/uslugi-1/svedeniya-iz-egrpo>

Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali

- <https://my.soliq.uz/main/?lang=ru>

O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlari portalı - <https://data.gov.uz/ru>

Yer resurslari va davlat kadastro boshqarmasi - <http://kadastr.uz/ru/>

Ijro hujjatlari bo'yicha qarzdlarning ma'lumotlar bazasi - <https://mib.uz> Axborot qidiruv tizimlari (masalan, Google, Yandeks va h.k.) va h.k.

Ushbu ro'yxat zarur bo'lganda o'zgartirilishi va kengaytirilishi mumkin bo'lgan manbalarning taxminiy ro'yxatini ifodalaydi.

VI bob. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshiruvini o'tkazish yo'nalishlari

21. Nomzodlarni tekshirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- nomzodda tugatilmagan sudlanganlik holati yoki iqtisodiy, jumladan korrupsiyaviy xarakterdagi qonunbuzarliklar munosabati bilan uni ma'muriy, jinoiy yoki intizomiy javobgarlikka tortish faktlari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar yo'qligi;
- sud organlari tomonidan qo'yilgan rahbarlik lavozimlarini egallashga ta'qiq yo'qligi – rahbarlik lavozimiga nomzod uchun;
- nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari to'g'risida ularning korrupsiyaviy, firibgarlik yoki boshqa qonunga xilof faoliyatiga doir ma'lumotlar yo'qligi;
- avvalgi ish joylaridan salbiy tavsiyanomalar yo'qligi;
- nomzodda manfaatlar to'qnashuvi alomatlari yo'qligi;
- nomzodga nisbatan boshqa xatar indikatorlari yo'qligi (jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida namoyish etilgan hayot tarzi rasmiy ish haqiga mos kelmaydi va boshqalar).

22. Qayd etilgan yo'nalishlar bo'yicha tekshiruv o'tkazish majburiy. Bunda tekshiruv yo'nalishlari ro'yxati zaruratga qarab har bir aniq holatda kengaytirilishi mumkin.

VII bob. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish natijalari

23. Nomzodni tekshiruvini o'tkazish natijalari bo'yicha Ijrochi tomonidan Nomzod tekshirilgani to'g'risidagi hisobot tuzilib (ushbu Yo'rinqnomani 1-ilova shakli bo'yicha), mazkur hisobot Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limida saqlanadi. O'tkazilgan tekshiruv va uning natijalariga oid ma'lumotlar Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish reyestri (ushbu Yo'rinqnomaga 2-ilova) ga kiritiladi.

24. Institutning kadrlar bo'limi institutdagagi Nomzodlarni tekshirish reyestriga kiritiladigan ma'lumotlarni yig'ish va ushbu Reyestrni tegishli tarzda saqlash uchun javobgar hisoblanadi.

25. Tekshiruv natijalari to'g'risidagi hisobotning 3 bo'limidagi 3.1, 3.2, 3.3 yoki 3.4 bandlari savollariga bitta va undan ko'p xavf indikatorlari mavjud bo'lgan taqdirda ("Ha" javoblari) ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish natijalari bo'yicha salbiy xulosa kiritiladi. 3.5 yoki 3.6 bandlaridagi savollardan biriga bittasiga bo'lsa ham bir va undan ortiq xavf

indikatorlari (“Ha” javoblari) mavjud bo‘lgan taqdirda, tekshiruv o‘tkazayotgan shaxs vaziyatni korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi yoki mavjud emasligi bo‘yicha baholaydi.

26. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud bo‘lgan taqdirda tekshiruv o‘tkazayotgan shaxs ularni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni taklif qiladi yoki bunday xatarlar darajasini pasaytirish imkonи bo‘lmagan taqdirda nomzodni tekshirish natijalari bo‘yicha salbiy xulosa beradi.

27. Salbiy xulosa berilgan taqdirda nomzodni, shu jumladan, hududiy va tarkibiy bo‘linmalarga ishga qabul qilish rahbar qaroriga ko‘ra nomzod ishga olinayotgan bo‘linma rahbariyati tomonidan mazkur yo‘nalishni nazorat qiluvchi rahbar o‘rinbosari va kadrlar bo‘limi rahbari bilan kelishilgan holda tuzilgan xizmat ma’lumotnomasi asosida amalga oshiriladi. Xizmat ma’lumotnomasiga Tekshiruv natijalari to‘g‘risidagi hisobot nusxasi ilova qilinadi.

28. Tekshiruv natijalari bo‘yicha korrupsiyaviy xatarlar aniqlangan va ularni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar taklif etilgan nomzod ishga olingen taqdirda xodimning rahbari tavsiya etilgan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishini nazorat qilish uchun javobgar hisoblanadi.

29. Institut vakant lavozimlariga ishga qabul qilish va rasmiylashtirish, xodimlarni boshqa lavozimga o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmoni asosida ishlab chiqilgan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

30. Institutda xodim bilan tuzilayotgan mehnat shartnomasiga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ogohlantirish bandi namunasi kiritilishi lozim (3-ilova).

VIII bob. Tekshiruvni hujjatlashtirish va hujjatlarni saqlash muddatlari

31. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish natijalari (jumladan, Tekshiruv natijalari to‘g‘risidagi hisobot va boshqa hamroh hujjatlar) maxfiy hisoblanadi va ishga joylashayotgan nomzodni tanlab olish va tekshirish jarayonida ishtirok etmayotgan institut xodimlari va boshqa uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi.

32. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish reyestri (ushbu Yo‘riqnomaga 1-ilova) dan faqatgina Ijrochilar foydalanishi mumkin.

33. Lavozim majburiyatlarini amalga oshirish uchun bunday ma’lumotlardan foydalanishi zarur bo‘lgan boshqa xodimlar rahbar yoki uning o‘rinbosarining yozma roziligin olishi lozim.

34. Nomzod ishga joylashtirilgan taqdirda Tekshiruv o‘tkazilgani haqidagi hisobotning asl nusxasi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan muddat va tartibda xodimning shaxsiy yig‘ma jildida saqlanishi shart.

35. Tekshiruv o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi hisobot nusxasi, shuningdek, hisobotdagи ma’lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar va ma’lumotlar (masalan, skrinshotlar, ko‘chirma, vakolatli

muassasalarga yuborilgan so'rovlar va ularga olingan javoblar va h.k) Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi tomonidan kamida 10 (o'n) yil davomida saqlanishi shart.

36. Institutga ishga joylasha ololmagan nomzodlarni tekshirish natijalari uch yil davomida saqlanadi.

37. Agar nomzod institutda ishlashga so'nggi tekshiruv o'tkazilgandan so'ng 2 yil davomida da'vogar bo'lsa, qayta tekshiruv talab etilmaydi (manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha tekshiruv bundan mustasno). Agar so'nggi tekshiruv o'tkazilganiga ikki yildan ortiq vaqt bo'lган bo'lsa, nomzod qayta tekshirilishi lozim.

IX bob. Yakuniy qoidalar

38. Ushbu Yo'riqnomalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgargan taqdirda yoki nomzodlarni tekshirish jarayonini takomillashtirish zarurati tug'ilganda qayta ko'rib chiqilishi va o'zgartirilishi lozim.

39. Mazkur Yo'riqnomalar qoidalarini buzishda aybdor xodimlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va institut ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan tartib va asosda intizomiy va boshqa javobgarlikka tortilishi mumkin.

Nomzod tekshirilgani to'g'risidagi hisobot

1. Asosiy ma'lumotlar			
1.1	Nomzodning F.I.Sh.		
1.2	Tug'ilgan sanasi		
1.3	Bo'sh lavozim nomi		
1.4	Bo'linma		
1.5	Bog'lanish uchun telefon		
1.6	El.pochta manzili		
2. Ish tajribasi			
2.1	Avvalgi ish joylari (teskari xronologik tartibda), lavozimlari		
2.2	Avvalgi ish joylaridan salbiy fikrlar mavjudligi	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		Izoh (lar):	
		Manba(lar):	
3. Tekshiruv natijalari			
3.1	Ushbu Yo'riqnomanining 11bandida ko'zda tutilgan hujjatlarning to'liq paketi olindimi? ("Yo'q" javobi faqatgina O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 80-moddasiga muvofiq ishga qabul qilish vaqtida talab etilgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda berilishi mumkin)	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		Etishmayotgan hujjat(lar):	
		Ularning yo'qligi sababi(lari):	
3.2	Nomzoddan olingan, jumladan ma'lumotnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchlilik alomatlari va u tomonidan o'zi haqidagi ayrim ma'lumotlarni yashirish yoki soxtalashtirish alomatlari yo'qligi	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	

3.3	<p>Nomzodda tugatilmagan sudlanish jarayoni va (yoki) iqtisodiy, jumladan, korrupsiyaviy xarakterdag'i qonunbuzarliklar munosabati bilan uni ma'muriy, jinoiy yoki intizomiy javobgarlikka tortish faktlari mavjudligi</p>	<input type="checkbox"/> Ha (agar javob ijobjiy bo'lsa, asosini ko'rsating)	<input type="checkbox"/> Yo'q	
		Izoh(lar):		Manba(lar):

3.4	<p>Sud organlari tomonidan qo'yilgan rahbarlik lavozimlarini egallashga taqiq yo'qligi (rahbarlik lavozimiga nomzod uchun)</p>	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q	
		Izoh(lar):		Manba(lar):
3.5	<p>Nomzodda manfaatlar to'qnashuvi alomatlari mavjudligi:</p>	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q	
		Izoh(lar):		Manba(lar):
1)	<p>nomzodning yaqin qarindoshlari Tashkilotning amaldagi xodimi hisoblanadi</p>	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q	(agar javob ijobjiy bo'lsa: ish joyi, lavozimi, asosiy majburiyatlarini ko'rsating)
		Izoh(lar):		Manba(lar):
2)	<p>Nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari rahbarlik lavozimi yoki qarorlar qabul qilish bilan bog'liq lavozimni egallab turgan bo'lsa yoki potensial ravishda Tashkilot kontragentlari bo'lishi mumkin bo'lган kompaniyalar boshqaruв organlari tarkibiga kirsa</p>	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q	(agar javob ijobjiy bo'lsa: FISH va qarindoshlik darajasi (agar manfaatlar to'qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog'liq bo'lsa), kompaniya nomi, lavozimi)
		Izoh(lar):		Manba(lar):

	3) Nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari har qanday tashkilotning ommaviy muomalada bo'lmagan aksiyalari yoki ustav kapitalidagi ulushi yoxud Respublika fond birjasi yoki boshqa fond birjasida ommaviy muomalada bo'lghan qimmatbaho qog'ozlarning 5% va undan ortig'iga egalik qilsa yoki kompaniyalar faoliyatini natijalarida shaxsiy manfaatdorligi bo'lsa (jumladan, investitsiyalar kiritish orqali)	Ha	Yo'q
		(agar javob ijobiy bo'lsa: FISh va qarindoshlik darajasi (agar manfaatlar to'qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog'liq bo'lsa), kompaniya nomi, lavozimi)	
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
	4) Boshqa alomatlar	Ha	Yo'q
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
3.6	Ish joyiga nomzod yoki uning yaqin qarindoshlarining korrupsiyaviy, firibgarlik yoki boshqa qonunga xilof faoliyatiga	Ha	Yo'q
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
	doir ma'lumotlar yo'qligi		
3.7	Nomzodga nisbatan boshqa xatar indikatorlari yo'qligi (jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida namoyish etilgan hayat tarzi rasmiy ish haqiga mos kelmaydi va boshqalar).	Ha	Yo'q
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
3.8	Boshqa ma'lumotlar (jumladan, intervyu natijalari)	Ha	Yo'q
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
4	Korrupsiyaviy xavf-xatarlar tahlili (3.5 hamda 3.6 bandlariga yoki ushbu bandlarning bittasiga javob ijobiy bo'lsa) va ularni minimallashtirish choralar bo'yicha tavsiyalar		
5	Xulosa	Ha / Yo'q	Izohlar
	3.1, 3.2, 3.3 va 3.4 bandlarida ko'rsatilgan xatar indikatorlari mavjudligi		Qayd etilgan toifadagi aqalliy bitta xatar mavjud bo'lgan taqdirda xulosa salbiy beriladi
	3.5, 3.6, 3.7 va/ yoki 3.8 bandlarida xatar indikatorlari mavjudligi		Yuqori korrupsiyaviy xavf-xatarlar va ularni kamaytirish bo'yicha choralar ko'rish imkonsiz bo'lgan taqdirda xulosa salbiy beriladi

YAKUNIY NATIJA	(salbiy xulosa /ijobiy xulosa)
TAVSIYALAR (aniqlangan xatarlarni hisobga olgan holda)	

Ijrochi

(imzo)

« »

(sana)

20 _____. (FISh)

*Virusologiya ITIga ishga qabul qilinayotgan
nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnomaga
2-Ilova*

Virusologiya ITIga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish reestri

T/r	Nomzodning F.I.Sh.	Bo'sh lavozim nomi	bo'lim nomi	Tekshiruv ijrochisi, F.I.Sh.	Nomzodni tekshirish bo'yicha hisobot sanasi va raqami	Tekshiruv natijasi (musbat / manfiy / aniqlangan xatarlar)	Tekshiruv natijasini asoslovchi qisqa izohlar
1	2	3	4	5	6	7	8
1							
2							
3							
4							
5							
...							

Virusologiya ITIning xodimlar bilan tuzilayotgan mehnat shartnomalarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida kiritiladigan ogohlantirish bandi namunasi

Ushbu shartnoma bo'yicha o'z vazifalarini bajarish doirasida xodim:

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonun hujjatlari va ichki me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishini ta'minlaydi;
- Jumladan Virusologiya ITIning korrupsiyaga qarshi siyosati”, “Odob-axloq qoidalari”, “Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom”, “Sovg'a berish va qabul qilish Siyosati”ga to'liq amal qiladi;
- ushbu me'yoriy hujjatlar talablari va ularda yuklatilgan majburiyatlarini bajarishni o'z zimmasiga olish va kelajakda bu talablarni bajarmaganda javobgar bo'lishini anglashi;
- o'z faoliyati davomida yuridik va jismoniy shaxslar yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora olishda vositachilik qilish, ulardan moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi, tashabbus ko'rsatish, ruxsat yoki va'da bermasligi;
- - tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmasligi yoki tadbirkorlik faoliyati subyektlarini tashkil etmasligi, ishtirokchisi yoki muassisi bo'lmasligi hamda tadbirkorlik faoliyati subyektiда tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini bajarmasligi;
- Shu bilan birga, xodimga chet davlat fuqaroligini olishga, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida hisobvaraqlar ochishga va ularga ega bo'lishga, ko'chmas mulkka va boshqa mol-mulkka egalik qilish taqiqlanadi. Bundan chet davlatda ta'llim olish, stajirovka o'tash va tibbiy xizmatlardan foydalanish maqsadida ochilgan hisobvaraqlar, shuningdek davlat fuqarolik xizmatiga kirishdan oldin olingan va oshkor qilingan mol-mulk olish mustasno;
- ish jarayonida ma'lum bo'lib qolgan huquqbazarliklar to'g'risida bevosita rahbariga yoki Ichki nazorat bo'limiga zudlik bilan xabar berishi lozim.